

TALABALARNI OMMAVIY SPORT SOG'LOMLASHTIRISH FAOLIYATIGA TAYYORLASHDA PEDAGOG KASBIY KOMPETENTLIGINING AHAMIYATI

O'zganboyev Dilyorbek Doniyorbek o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti

Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabasi

dilyorozganboyev04@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarni ommaviy sport sog'lomlashtirish faoliyatiga tayyorlashda pedagogning kasbiy kompetentligining ahamiyati va ular faoliyatining mazmuni xaqida so'z yritilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, ommaviy sport, iqtidorli sportchilar, kasbiy kompetentlik, murabbiy, sog'lomlashtirish, sport tadbirlari, badantarbiya, xalqaro musobaqalar, pedagogik ta'lim uslublari, jismoniy mashqlar.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlari o'zining yo'nalishiga qarab, o'quv mashg'ulot, tashviqot va targ'ibotchi, sport musobaqalariga bo'linadi. Sport musobaqalari katta foyda beruvchi tashkiliy-ommaviy, sog'lomlashtirish, jismoniy tarbiya va sport tadbirlaridan biridir. Badantarbiya elementlari belgilari o'zga tadbirlar bilan birga to'g'ri ishlatilsa odamlar sog'lig'ini mustahkamlaydi, umrini uzaytiradi va kayfiyatini yaxshilaydi. Inb Sino qayd qilib o'tgan badantarbiya turlariga o'zaro tortish, musht bilan turtish, kamondan o'q otish, tez yurish, nayza otish, irg'ib osilish, bir oyoqda sakrash, qilichbozlik va nayzabozlik, otda yurish, ikki qo'lini silkitish, bir vaqtda oyoq uchlarida turib qo'llarini oldiga va orqaga cho'zib tez harakat qilish mashqlari kiradi. Buyuk olim Ibn Sino tavsiya qilgan badantarbiya mashqlarining turlari bugun bizga etib kelibgina qolmay, balki shu turlardan xalqaro musobaqalar o'tkazilib kelinayapti, ushbu harakat o'yinlari Osiyo va Olimpiada o'yinlari dasturidan ham o'rin olgan.

Jismoniy tarbiya mutaxassislari yosh avlodni jismoniy tarbiyalash va jismoniy rivojlantirish mehnatga va hayotga tayyorlash hamda aholini sogʻlomlashtirish vazifalarini bajaradilar. Shuning uchun ular oʻz sohalarini etuk mutaxassislari va mohir sportchilar boʻlishlari kerak. Ular jismoniy tarbiya jarayonida harakatlarga oʻrgatish, harakat malaka va koʻnikmalarni shakllantirish hamda jismoniy mashqlar texnikasiga oʻrgatishda oʻzlari nazariy va amaliy jihatdan yuksak darajada tayyorgarligi bilan oʻrnak boʻlishlari kerak. Shu bilan birga tarbiyachi mutaxassislar ahloqiy va maʼnaviy etukligi shugʻullanuvchilarga har qanday yordamga tayyorligi ularda iroda va ruhiy fazilatlarini tarbiyalashda mohir doʻst ekanligi bilan ajralib turishlari kerak. Tarbiya jarayonining koʻp qirraliligi va murakkabligi jismoniy tarbiya mutaxassisi zimmasiga koʻp masʼuliyat yuklaydi. Bu esa mutaxassislarning pedagogik mahoratlari ularni oʻtiladigan oʻquv materiallarini nazariy va amaliy jihatdan toʻliq egallagan boʻlishlari bilan belgilanadi. Talabalarni jismoniy mashqlarga oʻrgatishda pedagogik taʼlim uslublari va texnologiyalardan foydalanish darajasi ham jismoniy tarbiya mutaxassislari mahoratli darajasini belgilaydi. Jismoniy tarbiya mutaxassislari shugʻullanuvchilarda faqatgina jismoniy fazilatlarini, mashqlar texnikasi va taktikasini tarbiyalabgina qolmay, ularda vatanparvarlik tuygʻularini, milliy istiqlol gʻoyalarini, sport yutuqlari bilan Vatanni dunyoga tanitish maʼsuliyatini hamda ahloqiy va estetik fazilatlarini shakllantirib tarbiyalab boradilar. Talabalarning harakat tajribalarini shakllantirish va jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish bilan bir vaqtda ularning vatan taraqqiyotidagi gʻoyaviy maqsadlarini tarbiyalash ularni yangi jamiyat qurishning faol ishtirokchilari qilib etishtirish ham jismoniy tarbiya mutaxassislarning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Xar bir sport murabbiylari tarbiya jarayonini boshqarish malakasi mukammal boʻlishi zamonaviy talablardan tarbiya jarayonini boshqarish uchun jismoniy tarbiya mutaxassislari mamlakatda va xorijda jismoniy tarbiya boʻyicha ilgʻor tajribalardan habardor boʻlishi va ularni egallagan boʻlishi kerak. Mutaxassislarning pedagogik mahorati ham jismoniy tarbiya jarayonlari kabi koʻp qirralidir. Pedagogik mahurat talabalarni jismoniy fazilat va qobiliyatlarini takomillashtirishda, harakat faoliyatida mustaqillikni rivojlantirishda, jamoatchilik ruhini tarbiyalashda, shugʻullanuvchilar shaxsiy xususiyatlari, hatti-harakatlarini tushunishda, qiziqishlari, talablari ehtiyoj va intilishlarini mohirlik bilan amalga oshirishda namoyon boʻladi. Jismoniy tarbiya mutaxassislari oʻz ishini ustasi boʻlishi va uni sevishi, jismoniy jihatdan barkamol, sogʻlom, sport texnik mahorati yuqori darajada boʻlishi kerak. Mutaxassislarning malakasi va jismoniy tarbiya sohasidagi maxsus bilimlari qanchalik keng boʻlsa tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatlari shuncha koʻp boʻladi. Har bir pedagog oʻz fani bilan tarbiyalash qobiliyatiga ega boʻlishi kerak. Oʻqituvchi talabalarni jismoniy takomillashtirishga harakat qilar ekan uning oʻzi jismonan barkamol, gavda tuzilishi uygʻun holda rivojlangan, harakatlari estetik jihatdan ifodali, qaddiqomati kelishgan

harakatlari ma'noli va erkin bo'lishi kerak. Jismoniy tarbiya mutaxassisi shu bilan birga madaniyatli bo'lishi, estetik tarbiyalangan, badiiy ma'lumotli, didli, sinchkov, ijodiy faol, shirin muomalali bo'lib, shug'ullanuvchilarda ham sifat va fazilatlarini tarbiyalashga katta e'tibor qaratishi kerak. O'qituvchi shirin suhan va shug'ullanuvchilarga mehribon bo'lish bilan birga, quvnoq, hamda yumor hissiga boy bo'lishlari kerak. Shuningdek ular talabalarni harakat faoliyatini bajarishda talabchan va pedagogik odobga ega bo'lishlari muhim. Sport hakamlari ham pedagogik mahoratni egallagan bo'lishi kerak. Yomon hakamlik qilish natijasida nizolar paydo bo'lib, musobaqa qatnashchilarida nafrat uyg'otadi va natijada murabbiyning barcha tarbiyaviy ishlari barbod bo'lishiga olib keladi. Sport hakamlarining pedagogik ta'sir ko'rsatishdagi muvaffaqiyatlari o'z vazifalarini bevosita uddalay olishlariga bog'liq. Sport hakamlari sportchilarni qo'pollik va

ahloqsizligini e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak. Ular ham murabbiy vazifasini bajarishlari kerak. Tajriba bilimi yuksak malakasi pedagogik mahorati va yaxshi hulqi bilan faqat sportchilarga emas tomoshabinlarga ham namuna bo'la oladigan hakamlar musobaqalarda yuksak sport madaniyatini tarqatuvchi bo'ladilar. Bunday hakamlikda musobaqa qatnashchilarining sport etikasi talablarini buzish uchun urinishlariga yo'l qo'ymaydi.

Hakamlarning tashqi qiyofasi ham muhim ahamiyatga ega. Ularning tashqi qiyofasi sportchilarni bellashuvga safarbar etishi yoki hafsalarini pir qilishi mumkin. Talabalar va o'smirlar jismoniy tarbiya jarayonida o'smirlar musobaqasida

- ✓ Tarbiya jarayonini milliy istiqlol g'oyasi yo'nalishida bo'lishi.
- ✓ Talabalarining yosh xususiyatlariga muvofiq holda har biriga individual yondashish.
- ✓ Talabalar oldiga yuksak talablar qo'yish va ularni xurmat qilishi xamda tarbiya

jarayonini jonli faol, quvnoq shaklda o'tkazish.

- ✓ Pedagogik talablar bilan tarbiyaviy ta'sir bo'lishini ta'minlash.

Jismoniy tarbiya mutaxassislari shug'ullanuvchilarni jismoniy qobiliyatlar rivojlanganlik darajasini bilishi, shaxsiy xarakter xususiyatlarini, aql idrok xissiyot irodalarini ahloqiy sifatleri va statik ehtiyojlardagi individual farqlarni o'rganish zarur. Tarbiyachi talabalarni o'rganishda pedagogik kuzatishlar kundaligi tutishi unga shug'ullanuvchilarni xarakterlari hulq atvori va boshqa faktlarni yozib borishlari kerak. Shug'ullanuvchilarni har tomonlama bilish asosidagina jismoniy tarbiya jarayonini samarali tashkil etish mumkin.

XULOSA

Talabalarni jismoniy tarbiya va sport turlariga ommaviy jalb etishda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarning xizmatlari keng o'rin tutadi. Talabalarni jismonan sog'lom va ma'naviy barkamol inson qilib tarbiyalashda to'g'ri tashkil etilgan jismoniy

tarbiya va sport, sogʻlomlashtirish tadbirlarining roli katta. Jismoniy tarbiya va sport, sogʻlomlashtirish tadbirlari talabalarni yetuk mutaxassis kadr boʻlib etishishlarida, nazariy va amaliy bilimlari takomillashib borishlarida hamda axloqiy sifatlarni shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. K.D. Yarashev «Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish» Toshkent Abu Ali Ibn Sino nashriyoti 2002-yil.
2. Poʻlatov A.A., Kurbanova M.A., Nadjimov F.F. Voleybol turi boʻyicha taʼlim muassasalarida sport toʻgʻarak mashgʻulotlarini tashkil etish yuzasidan oʻquvdasturi va metodik tavsiyalar. – T.: “Extremum press”, 2017. -136 b.
3. Г.И.ХАСАНОВА “Таълим жараёнида дастурлаштирилган ўқитиш технологиясидан фойдаланишнинг афзалликлари” Жиззах: 2020. 420 бет. 223-225б
4. Хасанова, Г. (2021). Олий таълим муассасалари педагогларининг креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни. *Academic Research in Educational Sciences*, 2(1), 778-782.
5. Norquziyeva, M. (2020). Бўлажак ўқитувчиларнинг касбга муносабатини ўзгартириш-касбий барқарорликни таъминлаш гарови. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
6. Abdurahmonovna, N. M. (2021). Pedagogical and Psychological Aspects of Professional Sustainability of Future Teachers.
7. Manzura, N. (2021). Sustainable Activity in the Teaching Profession and Its Foundations. *Psychology and Education Journal*, 58(2), 1339-1345.
8. Norquzieva. Mensuring professional stability of future teachers in pedagogical activity *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol. 8 No. 6, 2020